

+998 555 100 300
WWW.UZSE.UZ

100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK 107



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

PRESS - RELIZ

IYUN
2026




MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	3
BIRJA SAVDOLARI	5
Birja savdolari sharhi	6
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	7
Emitentlarning bozor kapitalizatsiyasi	9
UCI indeksi	9
Top-10 aksiyalar Main Board bo'yicha	10
Narxlarning o'zgarishi	11
Obligatsiyalar bozori	13
Tarmoq tuzilmasi	14
Birja kotirovkalash varag'i	15
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI	17
LTSM savdolari sharhi	18
Main Board bo'yicha LTSM aksiyalar Top-10 ro'yxati	19
DISKLEYMER	21

SAVDO YAKUNLARI

- Oy yakunlariga ko'ra, Birjada jami savdo hajmi **1,44 trln so'mni (120,06 mln AQSH dollari)** tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2026-yil may oyiga nisbatan **393,77 mlrd so'mga** yoki **37 foizga yuqori bo'ldi**. Shundan **942,48 mlrd so'm (78,27 mln AQSH dollari)** **birja kotirovkalash varag'iga** kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar hissasiga to'g'ri keldi. Qolgan savdo hajmi esa uyushgan birjadan tashqari bozorda (LTSM) amalga oshirilgan bitimlar hisobiga shakllandi.
- Hisobot davrida tuzilgan bitimlar soni **116 856** tani tashkil etdi. Bu 2026-yil may oyiga nisbatan **41 119 taga yoki 54 foizga ko'pdir**. Shundan **103 864 ta bitim birja kotirovkalash** varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, **12 992** ta bitim esa uyushgan birjadan tashqari bozorda (LTSM) amalga oshirildi.
- O'rtacha kunlik savdo hajmi **65,67 mlrd so'mni (5,46 mln AQSH dollari)**, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa **5 312** tani tashkil etdi.
- Hisobot davrida savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning umumiy soni **127,84 mlrd donani** tashkil etdi. Shundan **120,07 mlrd donasi** birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar hissasiga to'g'ri keldi.
- Savdolarida **215 ta emitentning qimmatli qog'ozlari** ishtirok etdi.
- Savdolarida jami **256 ta moliyaviy instrument** bo'yicha bitimlar amalga oshirildi.
- Hisobot davrida savdolar **22 savdo kuni** davomida olib borildi.

2026-YIL IYUN OYIDAGI BITIMLAR SONI VA HAJMI (MLRD SO'M)



IYUN
2026



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

BIRJA SAVDOLARI

BIRJA SAVDOLARI SHARHI

Oy davomida «Toshkent» RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan 71 ta emitentning 120,07 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bilan umumiy qiymati 942,48 mlrd so'mni (78,27 mln AQSH dollari) tashkil etgan 103 864 ta bitim tuzildi.

Eng yuqori savdo hajmi 30-iyun kuni qayd etilib, 542,88 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu iyun oyida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan jami savdo hajmining 57,60 foiziga teng bo'ldi. O'sha kuni eng yirik bitimlar "UzMRC" AJning /IQMK7B9/ obligatsiyalari bilan tuzilib, ularning umumiy hajmi 395,00 mlrd so'mni tashkil etdi.

Bu esa 30-iyun kuni amalga oshirilgan jami savdo hajmining 72,76 foiziga to'g'ri keldi. Eng past savdo hajmi 26-iyun kuni kuzatilib, 6 851 ta bitim bo'yicha jami 1,03 mlrd so'mlik savdolar amalga oshirildi. Iyun oyida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 4 721 tani, o'rtacha kunlik savdo hajmi esa 42,84 mlrd so'mni tashkil etdi.

May oy bilan taqqoslaganda, bitimlar soni 56,35 foizga oshgan bo'lsa, savdo hajmi 7,62 foizga kamaydi.

IYUN OYIDAGI SAVDOLAR HAJMI VA BITIMLAR SONI

Milliardlarda



BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

Hisobot davridagi eng yuqori savdo faolligi “Bond Market” seksiyasida kuzatildi; unda 9 ta emitent ishtirok etdi va 1 800 ta bitim tuzildi. Ushbu segmentdagi jami savdo hajmi 691,29 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Nº	Savdo tizimi bo‘limlari	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog‘ozlar soni	Bitimlar hajmi (so‘m)
I.	«Stock Market»:	62	102 055	120 065 690 228	250 687 975 670,70
1.	«Main Board»	60	102 034	8 466 090 905	45 754 496 048,80
2.	«Nego Board»	5	21	111 599 599 323	204 933 479 621,90
II.	«Bond Market»	9	1 800	555 702	691 289 647 381,95
1.	«Main Board»	8	1 791	139 869	289 506 110 016,42
2.	«Nego Board»	3	9	415 833	404 783 537 365,53
III.	REPO bozori	1	6	223	201 643 514,71
1.	«Repo Nego Board»	1	6	223	201 643 514,71
IV.	YPTK brokerlik tizimida	1	3	4 920 000	300 151 100,00
1.	«Public offering (PO)»	1	3	4 920 000	300 151 100,00
JAMI		71	103 864	120 071 166 153	942 479 417 667

“Bond Market” tarkibida operatsiyalarning asosiy ulushi “Nego Board” maydonchasiga to‘g‘ri keldi — 404,78 mlrd so‘m hajmda 9 ta bitim amalga oshirildi. Shuningdek, “HAMKORBANK” AJning aksiyalari (/HMKB/) bilan jami 300,15 mln so‘m summasida 3 ta bitim imzolandi.

AKSIYALAR BOZORI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	38 217	97 215	189 249	3 336 016	250 688
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	1 737	5 117	10 514	166 901	11 395
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	5	3	5	182	2
Bitimlar soni	dona	7 602	28 600	37 733	18 389	102 055
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	346	1 505	2 096	919	4 639

EMITENTLARNING BOZOR KAPITALIZATSIYASI


Hisobot davri yakunlariga ko'ra, aksiyalarning bozor kapitallashuvi 19,98 trln so'mga yoki 4,89 foizga oshib, 428,06 trln so'mni (35,49 mlrd AQSH dollari) tashkil etdi.

Erkin muomaladagi aksiyalarning bozor kapitallashuvi (free-float) esa 7,38 trln so'mni (612,22 mln AQSH dollari) tashkil etdi.

UCI INDEKSI

Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 10,39 foizga o'sib, 1 088,07 punkt darajasida yopildi. Indeksning eng yuqori ko'rsatkichi 30-iyun kuni qayd etilib, 1 088,07 punktni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich esa 16-iyun kuni kuzatilib, 938,12 punkt darajasida qayd etildi.


2026-YIL IYUN OYIDAGI UCI INDEKSI GRAFIGI



TOP-10 AKSIYALAR MAIN BOARD BO'YICHA

2026-yil iyun oyi yakunlariga ko'ra, aksiya bozorining G1 — "Main Board" asosiy savdo maydonchasida umumiy qiymati 45,75 mlrd so'mni tashkil etgan 102 034 ta bitim tuzildi.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10



Hisobot davrida eng ko'p bitimlar "Aloqabank" ATBning /ALKB/ va "Kapital sug'urta" AJning /KASU/ qimmatli qog'ozlari bilan tuzildi. Ular bo'yicha mos ravishda 21 492 ta va 17 386 ta bitim amalga oshirildi. Top-10 ro'yxatining yakuniy o'rinlarini "O'zbektelekom" AKning /UZTL/ oddiy aksiyalari hamda "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTBP/ imtiyozli aksiyalari egalladi. Mazkur qimmatli qog'ozlar bilan mos ravishda 2 662 ta va 2 421 ta bitim tuzildi.

SAVDOLAR HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Hisobot davrida eng yuqori savdo hajmi "UzNIF" AJning /UZNF/ hamda "Hamkorbank" ATBning /HMKB/ aksiyalari hissasiga to'g'ri kelib, ular bo'yicha mos ravishda 28 675,05 mln so'm va 5 237,28 mln so'mlik bitimlar tuzildi. Top-10 ro'yxatining yakuniy o'rinlarini "Biokimyo" AJning /BIOK/ va "Kvarts" AJning /KVTS/ oddiy aksiyalari egalladi. Mazkur qimmatli qog'ozlar bilan mos ravishda 280,43 mln so'mlik va 258,76 mln so'mlik bitimlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, "Main Board" maydonchasida savdo hajmi bo'yicha Top-10 ro'yxatiga kirgan emitentlarning jami savdo hajmi 43 165,36 mln so'mni tashkil etib, aksiya bozoridagi umumiy savdo hajmining 17,22 foiziga teng bo'ldi.

NARXLARNING O'ZGARISHI

Hisobot davrida aksiya narxlarining o'zgarishi -36,79 foizdan 73,91 foizgacha bo'lgan oraliqda qayd etildi. Eng yuqori narx o'sishi "O'zagrosug'urta" AJning /UZAS/ hamda "O'zbekko'mir" AJning /UZIR/ oddiy aksiyalarida kuzatildi. Mazkur aksiyalarning bozor narxi mos ravishda 40 000,00 so'm va 14 296,00 so'mgacha oshdi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 31.05.2026	Yopilish narxi 30.06.2026	O'zgarish %
UZAS	AJ «O'zagrosug'urta»	23 000,00	40 000,00	73,91%
UZIR	AJ «O'zbekko'mir»	8 400,00	14 296,00	70,19%
UVGT	AJ «O'ZVAGONTA'MIR»	18 000,00	29 750,00	65,28%
NGQS	AJ «Neft va gaz quduqlarini sinash»	17 999,00	27 000,00	50,01%
SANE	AJ «Sarbon-Neftgaz»	10 037,00	14 544,00	44,90%
UNVB	ATB «Universal bank»	15 605,00	21 521,00	37,91%
TRSB	XATB «Trastbank»	8 900,00	11 999,99	34,83%
UZIRP	AJ «O'zbekko'mir»	10 050,00	13 000,00	29,35%
BNGP	AJ «Buxoroneftgazparmalash»	105 500,02	130 000,00	25,22%
METQ	AJ «METQ»	650	800	25,00%

Shu bilan birga, “Qashqadaryo texnologik transport” AJning /QATT/ oddiy aksiyalari hamda “IPOTEKA-BANK” ATIBning /IPTBP/ imtiyozli aksiyalari narxi eng katta pasayishni qayd etdi. Mazkur aksiyalarning bozor narxi hisobot davri yakunida mos ravishda 206,06 so'm va 7,42 so'mni tashkil etdi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 30.05.2026	Yopilish narxi 30.06.2026	O'zgarish %
QATT	AJ «Qashqadaryo texnologik transport»	326,00	206,06	-36,79%
IPTBP	ATIB «IPOTEKA-BANK»	9,96	7,42	-25,50%
UZGFR	AJ «O'zbekgeofizika»	899,00	704,00	-21,69%
UTYK	AJ «O'ztemiryo'lkonteyner»	478 500,00	385 000,00	-19,54%
KSCM	AJ «Quvasoycement»	130 000,00	105 000,00	-19,23%
BECMP	AJ «Bekobodsement»	37 500,00	31 000,00	-17,33%
UPOSP	AJ «O'zbekiston Pochtasi»	50 000,00	41 500,00	-17,00%
ALKB	AT «Aloqabank»	0,96	0,82	-14,58%
PLST	AJ «Portlatishsanoat»	21 500,00	19 100,00	-11,16%
BRBN	ATB «Biznesni rivojlantirish banki»	135,00	120,00	-11,11%

OBLIGATSIYALAR BOZORI

2026-yil iyun oyi yakunlariga ko'ra, obligatsiyalar bozorining "Bond Market" maydonchasida umumiy qiymati 691,29 mlrd so'mni tashkil etgan 1 800 ta bitim tuzildi.

Eng yuqori savdo hajmi 30-iyun kuni qayd etilib, 395,20 mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur kunda obligatsiyalar bozorining "Bond Market" maydonchasidagi "Nego Board" platformasida "UzMRC" AJning /IQMK7B9/ obligatsiyalari bilan umumiy qiymati 395,00 mlrd so'mni tashkil etgan 5 ta bitim tuzildi. Bu ko'rsatkich hisobot davrida "Bond Market" maydonchasidagi jami savdo hajmining 57,14 foiziga teng bo'ldi.

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, obligatsiyalarning bozor kapitallashuvi 760,32 mlrd so'mga yoki 16,02 foizga oshib, 5,51 trln so'mni (456,52 mln AQSH dollari) tashkil etdi. Obligatsiyalar bozorida muomaladagi moliyaviy instrumentlar soni 35 taga yetdi.

Hisobot davrida "HAMROH MFO" MChJning /HMMT3B/ va /HMMT4B2/, shuningdek, "UzMRC" AJning /IQMK7B9/ obligatsiyalari birja kotirovkalash varag'iga kiritildi.

INSTRUMENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN SAVDOLAR HAJMINING ULUSHI, %




OBLIGATSIYALAR BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	30 000	6 616	3 167	116 174	691 290
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	1 364	348	176	5 809	31 422
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	4 286	147	8	134	384
Bitimlar soni	dona	7	45	419	867	1 800
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	0,3	2	23	43	82

TARMOQ TUZILMASI

Oy davomida "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan iqtisodiyotning 14 ta tarmog'iga mansub emitentlar bo'yicha bitimlar tuzildi.

2026-YIL IYUN OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR HAJMI, %



■ Moliyaviy xizmatlar 75,87%
 ■ Qurilish 1,18%
 ■ Sanoat 0,18%
 ■ Ko'chmas mulk 0,02%
 ■ APK (Agrosanoat majmuasi) 0,00%

■ Sug'urta 15,55%
 ■ Boshqalar 1,06%
 ■ Aloqa 0,16%
 ■ Farmatsevtika 0,01%
 ■ Lizing 0,00%


■ Transport 5,07%
 ■ Banklar 0,86%
 ■ Energetika 0,02%
 ■ Mashinasozlik 0,01%

Eng yuqori savdo hajmi moliyaviy xizmatlar tarmog'ida qayd etilib, unda 715,04 mlrd so'm hajmida 13 609 ta bitim amalga oshirildi. Mazkur ko'rsatkich birja kotirovkalash varag'idagi jami savdo hajmining 75,87 foizini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni sug'urta tarmog'i — 146,55 mlrd so'm (15,55 foiz) hamda transport tarmog'i — 47,78 mlrd so'm (5,07 foiz) egalladi. Mazkur uch tarmoqning jami ulushi birja kotirovkalash varag'idagi umumiy savdo hajmining 96 foizdan ortig'ini tashkil etdi.

Eng ko'p bitimlar soni bank sektorida qayd etilib, ushbu tarmoqda 45 205 ta bitim tuzildi. Keyingi o'rinlarni sug'urta tarmog'i — 21 455 ta bitim hamda moliyaviy xizmatlar tarmog'i — 13 609 ta bitim bilan egalladi.

Eng kam bitimlar soni qurilish va lizing tarmoqlariga mansub emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan qayd etilib, ular bo'yicha mos ravishda 104 ta va 44 ta bitim.


2026-YIL IYUN OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR SONI, DONA



BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'I

2026-yil iyun oyi yakunlariga ko'ra, "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida 95 ta emitentning 154 ta moliyaviy instrumenti mavjud bo'ldi.

KATEGORIYALAR KESIMIDAGI INSTRUMENTLAR



Shundan:

- 82 tasi — oddiy aksiyalar;
- 37 tasi — imtiyozli aksiyalar;
- 35 tasi — obligatsiyalar.

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga "HAMROH MFO" MChJning /HMMT3B/ va /HMMT4B2/, shuningdek, "UzMRC" AJning /IQMK7B9/ obligatsiyalari kiritildi.

Shuningdek, "Standart" toifasiga "Kafolat Sug'urta Kompaniyasi" AJning /KFSK/ oddiy hamda /KFSKP/ imtiyozli aksiyalari, "Tranzit" toifasiga esa "PLUM TECHNOLOGIES" AJning /PLTG/ va "ASIA INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJning /AISK/ oddiy aksiyalari kiritildi.

Birja kotirovkalash varag'i to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq kelmaganligi sababli, "Biznes Centr Samarqand" AJning /BCSK/, "Xorazmsuvqurilish" AJning /XOSQ/, "OCTOBANK" AJning /OCBK/ hamda "Neft ta'minot" AJning /NETA/ oddiy aksiyalari, shuningdek, "Oq oltin don mahsulotlari" AJning /OODM/ oddiy va /OODMP/ imtiyozli aksiyalari birja kotirovkalash varag'idan chiqarildi.

"Stock Market" aksiyalar bozorida eng yuqori savdo hajmi va bitimlar soni "Standart" segmentida qayd etildi. Mazkur segmentda umumiy hajmi 158,35 mlrd so'mni tashkil etgan 82 326 ta bitim tuzildi.

Eng kam bitimlar soni "Tranzit" segmentida qayd etilib, unda 1 718 ta bitim bo'yicha 58,89 mlrd so'mlik savdolar amalga oshirildi. Eng past savdo hajmi esa "Xususiylashtirish" segmentida kuzatilib, 3 066 ta bitim bo'yicha 207,78 mln so'mni tashkil etdi. "Premium" segmentida esa umumiy hajmi 33,54 mlrd so'mni tashkil etgan 14 948 ta bitim tuzildi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

**IYUN
2026**

LTSM SAVDOLARI SHARHI

Hisobot davrida LTSMdagi savdo hajmi 502,21 mlrd so'mni (41,79 mln AQSH dollari) tashkil etib, o'tgan oyga nisbatan 471,54 mlrd so'mga ko'paydi. Mazkur hajmning asosiy qismi — 329,34 mlrd so'm yoki 65,48 foizi "SME Stock" bozorining "FoP Board" maydonchasi hissasiga to'g'ri keldi.


Eng yuqori savdo hajmi 24-iyun kuni qayd etilib, 329,34 mlrd so'mga (27,41 mln AQSH dollari) yetdi. Eng past savdo hajmi esa 5-iyun kuni kuzatilib, 12,06 mln so'm (1 005 AQSH dollari) miqdoriga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida jami 12 992 ta bitim tuzildi. Eng ko'p bitimlar soni 10-iyun kuni qayd etilib, 1 075 tani tashkil etdi. Eng kam bitimlar soni esa 30-iyun kuni kuzatilib, 335 tani tashkil qildi.


LTSMda o'rtacha kunlik savdo hajmi 22,83 mlrd so'mni (1,90 mln AQSH dollari), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 591 tani tashkil etdi.

LTSM BITIMLAR HAJMI, MLRD SO'M

Milliardlarda



LTSM BITIMLAR SONI




LTSM ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Nº	Savdo maydonchasi	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Savdo hajmi (so'm)
I.	«SME Stock»:	146	12 992	7 771 236 084	502 206 357 564,75
1.	«Main Board»	141	12 964	271 781 786	3 027 534 848,63
2.	«Nego Board»	9	27	7 170 613 418	170 337 942 716,12
3.	«FoP Board»	1	1	328 840 880	328 840 880 000,00
JAMI		125	9 307	7 771 236 084	502 206 357 564,75

MAIN BOARD BO'YICHA LTSM AKSIYALAR TOP-10 RO'YXATI

«SME Stock» bozorining G1 — «Main Board» seksiyasida bitimlar soni va savdo hajmi bo'yicha Top-10 aksiyalar.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10



Eng ko'p bitimlar "Uzsanoateksport" AJning /OSNE/ aksiyalari bilan tuzilib, ularning soni 1 650 taga yetdi. Keyingi o'rinlarni "SHOVOT DON MAHSULOTLARI" AJning /OSVD/ hamda "QO'QON MEXANIKA ZAVODI" AJning /OKUM/ aksiyalari egalladi. Mazkur aksiyalar bilan mos ravishda 652 ta va 575 ta bitim tuzildi. Top-10 ro'yxatining yakuniy o'rinlarini "YANGIYO'L YOG'-MOY" AJning /OYGY/ hamda "Xonqa don mahsulotlari" AJning /OXDL/ aksiyalari egalladi. Ular bilan mos ravishda 362 ta va 350 ta bitim tuzildi.

Eng yuqori savdo hajmi "OCTOBANK" AJning /OOCB/ oddiy aksiyalari bilan qayd etilib, 1 009,22 mln so'mni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich "Main Board" maydonchasidagi aksiyalar savdosi umumiy hajmining 33,33 foiziga to'g'ri keldi. Keyingi o'rinlarni "TRANSGAZMAXSUSQURILISH" AJning /ONGM/ hamda "SHOVOT DON MAHSULOTLARI" AJning /OSVD/ oddiy aksiyalari egalladi. Ular bilan mos ravishda 250,25 mln so'mlik va 240,15 mln so'mlik bitimlar tuzildi.

SAVDOLAR HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Top-10 ro'yxatining yakuniy o'rnini "Samarqandpaxtasanoat" AJning /OSAM/ oddiy aksiyalari egallab, ular bilan 68,16 mln so'mlik bitimlar amalga oshirildi. Savdo hajmi bo'yicha Top-10 ro'yxatiga kirgan aksiyalar bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2,12 mlrd so'mni tashkil etib, mazkur segmentdagi jami savdo hajmining 70,13 foiziga teng bo'ldi.

DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 555 100 300